

**YOZEF GAYDN HAYOTI VA UNING SIMFONIK ORKESTR  
SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI****To‘lanboyeva Gulziyobonu**

*Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san‘atshunoslik fakulteti  
“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kompozitor Yozef Gaydn hayot yo‘li va ijodiy faoliyati, “Estergaz” saroyidagi xizmat davri, Y.Gaydnning simfonik orkestr tarkibi shakllanish jarayoni haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Kompozitor, musiqa, simfoniya, orkestr, cholg‘u, xor, oratoriya.*

**Аннотации:** *В данной рассказывается о жизни и творческой деятельности композитора Йозефа Гайдна, периоде службы во дворце “Эстергази” процессе формирования состава симфонического оркестра Ю.Гайдн.*

**Ключевые слова:** *композитор, музыка, симфония, оркестр, инструмент, хор, оратория.*

Avstriyalik buyuk kompozitor, simfoniya va kvartet otasi, Vena klassik maktabi rivojlanishiga hissa qo‘shgan kompozitor, Yozef Gaydn 1732-yil 31-mart Avstriya poytaxti Vena shahri yaqinidagi Rorau qishlog‘ida aravasozi Gaydnlar xonadonida dunyoga kelgan. Otasi oddiy hunarmand bo‘lib, aravalarga g‘ildirak yasagan. Ammo otasining musiqiy iqtidori, musiqaga bo‘lgan sevgisi farzandlariga ham o‘tgan. Dastlab kompozitor musiqa savodini uyida o‘rgangan. Kichik Yozef o‘zida ajoyib eshitish, eslab qolish, ritm qobilyatlarini namoyon etib 5 yoshidayoq musiqachilar diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Shunday qobilyatlari tufayli avval kichkina shaharcha Gaynburgdagi cherkov xoriga, keyinchalik esa Vena shahridagi avliyo Stefan sobori xor kapellasiga kirgan. Xor jamoasida kuylash Gaydn uchun eng yaxshi va yagona maktab vazifasini o‘tagan. U hatto skripka va klavikord chalishni o‘rgangan. Kompozitorning ovozi 13 yoshida o‘zgarib boshlaydi shu sababli xorda yaxshi kuylay olmagan uchun uni bo‘shatib yuborishgan. Gaydn arzimagan haq evaziga musiqa saboqlaridan dars berib yurgan chog‘ida, buyurtma asosida birinchi yirik asarlarini yozgan. Bu asar esa o‘ziga xos nomlanishga ega bo‘lib “Yangi maymoq shayton” musiqali komediyasidir, kvartetlar (ikkita skripka, alt va violenchel uchun asarlar), simfoniya edi. Gaydn kompozitor bo‘lish maqsadida taniqli Italiyalik pedagog Nikkolo Porporadan ta‘lim olishni istagan. Biroq to‘lashga puli bo‘lmagan uchun unga jo‘r bo‘luvchi hamda bir vaqtning o‘zida xizmatkorlik vazifasini bajarish orqali kompozitsiya bo‘yicha qimmatli maslahatlar olgan.

Yozef Gaydn 1761-yilda Vengr knyazi Estergazi tomonidan kapellaga rahbarlik qilish uchun taklif etilgan va kapelmeyster (dirijyor) lavozimida o‘ttiz yil umr kechirgan. Kapelmeyster majburiyatlariga orkestr va xonandalarga rahbarlik qilish, knyaz talabiga

binoan simfoniyalar, operalar, kvartetlar hamda boshqa asarlar yozish kirgan. Gaydnning mahorati yillar o'tgan sayin rivojlana boshladi. Shuning uchun uning nomi vatanidan chetda – Angliya, Fransiya, Rossiyada ham mashhur bo'lib ketgan. 1786-yil Parijda ijro etilgan oltita simfoniya “Parij simfoniyalari” nomini olgan. Lekin knyaz roziligisiz bir yerga borish, asarlarni nashr qilish yoki kimgadir sovg'a qilish huquqi yo'q bo'lgan. Xatto bir marta Gaydn bilan birgalikda musiqachilar yozgi saroyda kech kuzgacha qolib ketishgan. Sovuq tushishi bilan “Estergaz” saroyini o'rab turgan botqoqlik doimo bezgak kasalligini keltirib chiqargan. Kasallikdan toliqqan musiqachilar oiladan ajralib qolganliklaridan azob chekkan. Knyaz yoz vaqtida ular oilasi bilan ko'rishishini ta'qiqlagan va hech narsa bilan ishi yo'q bo'lgan. Gaydn esa xo'jayniga eslatib qo'yish maqsadida “Xayrlashuv” deb nomlangan simfoniyasini yozgan. Simfoniyaning ijro etish paytida musiqachilar navbat bilan pyupitrdagi shamchiroqni o'chirib, orkestrni tark etib ketishgan. Nihoyat, ikki nafar skripkachi qolgan, (ulardan biri Gaydn edi) ular ham asarni tugatib sahnadan chiqib ketishgan. Knyaz bu kinoyani tushungan va marhamat qilib Eyzenshtadtga ketishga rozilik bildirgan.<sup>44</sup>

1791-yili kompozitor 60 yoshga yaqinlashganda, keksa knyaz Estergazi vafot etgan. Estergazining o'g'li musiqani uncha xushlamagani uchun kapellani tarqatib yuborgan. Yosh Estergazi Gaydnni boshqa ishga o'tmasligi uchun yetarli bo'lgan nafaqa tayinlashga majbur qilgan. Gaydn nihoyatda baxtiyor edi! Nihoyat u ozod va mustaqillikka erishgan. Ingliz qirolchasi Gaydnni Angliyaga taklif qilgan va u ikki marta Angliyaga tashrif buyurib muvafaqqiyatli konsertlar bergan. Bu yillar davomida u mashhur o'n ikkita “London simfoniyalari”ni yozdi. Gaydn ijodida simfonik turkum tugal shakllandi. Umri davomida kompozitor 104 ta simfoniya yaratgan. “Simfoniya” qadimgi yunoncha so'z bo'lib, “uyg'unlik”, “hamsadolik”, “birdamlik” ma'nosini anglatadi. Uzoq yillar tovushlarning istalgan yoqimli birikmasini simfoniya deb atab kelishgan. Keyinchalik bu so'z boshqa ma'nolarni ham aks ettirgan. Raqs syuitasidan avval ijro etiladigan kirish qismini, opera boshlanishi oldidan orkestr ijro etadigan kirish qismini ham “simfoniya” deb atashgan.<sup>45</sup>

Simfoniya janri. Gaydn ijodida o'zining uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Hozirgi kunda bu to'rt qismli shakl “sonata-simfonik” turkum deb ataladi va har tomonlama yetuk hamda barkamol klassik shakl hisoblanadi. Simfoniyaning birinchi qismi tez tempda ketadi va ko'p hollarda faol hayajonli sadolanadi. Ikkinchi qism og'ir, vazmin. Insonning goh yorqin va xotirjam, goh qayg'uli lirik kayfiyatini tasvirlaydi. Uchinchi qism esa menuet. Nomini eshitalishidayoq uning raqsona, jonli xarakteridan darak beradi. To'rtinchi qism yoki final, asarning oxirigi, yakunlov qismidir. Bu qismda tez temp yana qaytariladi. Gaydnning simfoniyalari ko'p hollarda final raqsona

<sup>44</sup> Sharipov.N Xorijiy musiqa adabiyoti. I kitob-Toshkent,2014.-128-129-bet

<sup>45</sup> B.R.Yakubov -“Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti” Farg'ona-2005

xarakterga ega bo'lgan. Shuningdek, uning buyuk zamondoshlari V.Motsart va L.V.Betxoven ham o'z simfoniyalarini shu tarzda tuzishgan.

Simfonik orkestrning tarkibi ham Gaydnni ijodida shakllandi. Uning asosini cholg'ularning to'rtta guruhi tashkil qilgan.

Orkestrning torli, yetakchi guruhiga skripkalar, altlar, violenchellar va kontrabaslar kirgan. Yog'och-puflama cholg'ular guruhini fleytalar, goboylar, klarnetlar, fagotlar tashkil etgan. Misli puflama cholg'ular guruhi kompozitorda valtorna va turbalardan tashkil topgan. Zarbli cholg'ular ichida esa faqatgina litavralardan foydalangan.



Kompozitor hayoti davomida 100 dan ortiq simfoniya, torli kvartet janrining asoschisi va rivojlantiruvchisi sifatida 83 ta kvartet, 1795-yil Venaga qaytib esa ikkita "Dunyoning yaratilishi" va "Yil fasllari" oratoriyalarini yozdi. "Dunyoning yaratilishi" oratoriyaning dastlabki ikki qismida Xudoning irodasi bilan dunyo paydo bo'lganligi haqida hikoya qilingan. Uchinchi va oxirgi qism odam Ato va Momo Havoning yiqilishdan oldingi samoviy hayoti haqida bo'lgan. "London simfoniyalari" va oratoriyalar Gaydn ijodining cho'qqisi bo'lgan. Oratoriyalardan so'ng Gaydn deyarli hech qanday narsa yozmadi. Uning kuch-quvvati susaydi. Oxirgi yillarni kompozitor Vena shahri chekkasida, kichkina uyda o'tkazgan. San'at ixlosmandlari esa uni ziyorat qilishardi.

Yozef Gaydn 1809-yilda vafot etgan va Venada dafn etilgan. Keyinchalik esa uning xoki umrining ko'p yillarini o'tkazgan Eyzenshtadtga olib kelingan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sharipov.N. Xorijiy musiqa adabiyoti. I kitob Toshkent, 2014.
2. B.R.Yakubov. "Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti" Farg'ona, 2005.
3. Hughes, Rosemary. Haydn String Quartets. London: BBC, 1966. A brief (55-page) introduction to Haydn's string quartets.